



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2023-2024 O'QUV YILI
ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR
UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA MAKTAB –
INTERNATLARNING 9-SINF O'QUVCHILARI
UCHUN TEXNOLOGIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT-2024

Imtihon materiallari Respublika ta'lim markazi Maxsus pedagogika bo'limining navbatdagi ilmiy-metodik kengashida 2024-yil 19-martdagi 2-son qarori bilan tasdiqlanib foydalanishga tavsiya etildi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari metod birlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

TUZUVCHILAR:

Z.Djurayeva - Respublika ta'lim markazi Maxsus pedagogika bo'limi boshlig'i.

Texnologiya (Tikuvchilik)

Sh.Musayeva – Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi 105-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi.

N.Xait-Axunova – Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi 105-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi.

Texnologiya (Duradgorlik)

B.Qo'chqorov – Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 57-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

R.Axmedov – Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 52-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

Texnologiya (Chilangarlik)

U.Zokirov – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 199-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

N.Zaykin – Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 25-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

Texnologiya (Kosibchilik)

V.Ataxodjayev – Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 66-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

Texnologiya (Pazandachilik)

M.Azimova – Toshkent shahar Yashnabod tumanidagi 103-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi.

Texnologiya (Sartaroshlik)

Sh.Ismoilova – Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 25-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

Texnologiya (Qishloq xo'jaligi)

X.Manbetov – Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 48-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

B.Qarshiyev - Toshkent shahar Yashnobod tumani 103-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi.

Sh. Ismoilova - Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 25-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

R.Ibragimov - Toshkent shahar Uchtepa tumani 199-sonli aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi.

TEXNOLOGIYA

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchi sinflari uchun “**Texnologiya**” fanidan (tikuvchilik, duradgorlik, chilangarlik, kosibchilik, pazandachilik, sartaroshlik, qishloq xo'jaligi) yakuniy nazorat imtihonlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARINI O'TKAZISH TARTIBI

- Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda mehnat ta'limi fanidan (tikuvchilik, duradgorlik, chilangarlik, kosibchilik, pazandachilik, sartaroshlik, qishloq xo'jaligi) yo'nalishlar bo'yicha imtihon savollari amaliy va nazariy topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Barcha yo'nalishlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun 180 daqiqa vaqt ajratiladi.

Bunda yakuniy attestatsiya 2 bosqichda (amaliy va nazariy) o'tkaziladi.

1-bosqich (amaliy – 120 minut): o'quvchi oldindan tanlangan 3 yoki 4 ta amaliy ishdan birini bajaradi.

2-bosqich (nazariy – 60 minut): o'quvchi 15 ta biletidan birini tanlaydi (1ta biletida 2 ta savol berilgan) va savollarga og'zaki javob beradi.

Izoh: mehnat ta'limining boshqa yo'nalishlari (qandolatchilik, obodonlashtirish va hakoza) bo'yicha yakuniy attestatsiya materiallari maktab mehnat o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda metodbirlashma yig'ilishida tasdiqlangan holda yakuniy attestatsiya imtihonlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

- Topshiriqlarni bajarish uchun har bir o'quvchi zarur bo'lgan chizma yoki texnologik talablar ko'rsatilgan topshiriqlarni, materiallarni oladilar.

- O'qituvchi vazifani bajarishga qo'yilgan maqsad va qisqacha topshiriqning tartibini tushuntiradi. O'quvchilar asbob-uskunalarni mustaqil ravishda tanlaydilar. Hay'at a'zolari ishning borishi, asbob-uskunalarni to'g'ri tanlanishi, ish joyini tashkil etilishi va ishni bajarilish tartibini hisobga oladi.

Izoh: Amaliy topshiriqlar murakkab va yengil turda berilgan bo'lib, berilgan amaliy topshiriqlardan biri tanlangan holda bajariladi.

- O'quvchi amaliy topshiriqlarni bajargandan so'ng, nazariy savollarga og'zaki javob beradi.

- Mehnat yo'nalishlari bo'yicha olib boriladigan amaliy va nazariy imtihonlarni o'tkazish, o'quvchilar uchun barcha sharoitlarni yaratishda maktab direktori shaxsan javobgardir.

BAHOLASH MEZONLAR

№	Amaliy topshiriq	Ball
1	Amaliy ish o'z vaqtida, toza, asbob-uskunalarni to'g'ri tanlangan holda bajarilsa	5
2	Amaliy ishni bajarishda bir-ikkita kamchilikka yo'l qo'yilsa	4
3	Amaliy ish berilgan vaqt ichida oxirigacha yetkazilmasa	3
4	Amaliy ish berilgan vaqt ichida oxirigacha yetkazilmasa hamda bir-ikkita kamchilikka yo'l qo'yilsa	2
5	Topshiriq umuman bajarilmaganda	1
Nazariy topshiriq		
1	Biletidagi nazariy savollarga to'liq javob berilsa	5
2	Biletidagi nazariy savollarga javob berishda bir-ikkita kamchilikka yo'l qo'yilsa	4
3	Biletidagi nazariy savollarga javob berishda uchta-to'rtta kamchilikka yo'l qo'yilsa	3
4	Biletidagi nazariy savollarga to'liq javob bera olmasa	2
5	Topshiriq umuman bajarilmaganda	1

TIKUVCHILIK

1-BILET

1. Tikuvchilik korxonasiidagi asosiy ishchi kasblari haqida ma'lumot bering.
O'zbekistonda qanday hunarmandchilik kasblarini bilasiz?
2. Tikuv mashinasida o'tirish qoidasini va texnika xavfsizlik qoidasini aytib bering.
Mashina choklari turlarini aytib bering.

2-BILET

1. Sintetika va aralash tolali gazlamalar ularning xususiyati. Maishiy va sanoat tikuv mashinalarining farqi.
2. Koketka nima? Koketka turlarini aytib bering.

3-BILET

1. Ishga kirish uchun qanday hujjatlar kerak bo'ladi? Maxsus mashinalar haqida ma'lumot. Overlok qanday ishni bajaradi?
2. Ko'rpa va yostiq jildlari haqida ma'lumot qo'llaniladigan gazlamalar va ishlov berish ketma-ketligi.

4 - BILET

1. O'zbek milliy kiyimlarini tikishda qo'llaniladigan gazlamalar. Tikuv mashinasi tarixi va ularning turlari haqida ma'lumot.
2. Ko'krakpo'shtli fartukning ishlatish joyi, qo'llaniladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

5-BILET

1. Tabiiy tola turlari, ularning olinishi va xususiyati. Tikuv mashinasining ishchi mexanizmlari.
2. To'g'ri bichiqli yubka haqida ma'lumot: ishlatiladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

6-BILET

1. Jun tolali gazlamalarini namlab, isitib dazmollash usullari. Moki to'plamining qismlarini aytib bering.

2. Kiyim turlari haqida ma'lumot.

7-BILET

1. Jun tolali gazlamalarning olinishi va xususiyati. Tikuv mashinasi yuqoridan ip tashlasa, qanday bartaraf qilinadi?
2. Chaqaloqlar kiyimi turlari va ularga qo'yiladigan gigiyenik talablar, ishlatiladigan mashina choki turlari.

8-BILET

1. Zig'ir tolali gazlamalarning olinishi va xususiyatlari. Tikuv mashinasining pastidan ip tashlasa qanday bartaraf qilinadi?
2. To'g'ri bichiqli ko'ylak haqida ma'lumot: ishlatiladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

9-BILET

1. Paxta tolali gazlamalarning olinishi va xususiyati. Mashina ignasining tuzilishi. Mashina ignasini o'rnatib bering.
2. Beli qirqimli ko'ylak haqida ma'lumot, qo'llaniladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

10-BILET

1. Ipak tolali gazlamalarni namlab, isitib dazmollash usullari. Tikuv mashinasini parvarishlash tartibini aytib bering.
2. Bo'yin o'yindisi turlari va ularga ishlov berish usullari.

11-BILET

1. Sintetik tolalar, ularning olinishi va xususiyati. Baxya rostlagichning vazifasi.
2. Milliy o'zbekcha koketkali ko'ylak haqida ma'lumot va tikish ketma-ketligi.

12-BILET

1. Noto'qima gazlamalarning olinishi va xususiyatlari. Tikuv mashinasining ustki ip taranglik moslagichi nima uchun xizmat qiladi? Ustki ipini o'tkazish ketma-ketligini ko'rsatib bering.
2. Ayollar shimi haqida ma'lumot, qo'llaniladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

13-BILET

1. Tolalar klassifikatsiyasi. Tikuv mashinasini yuqori ipini o'tkazish mexanizmi.
2. Nimcha haqida ma'lumot: ishlatiladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

14-BILET

1. Gazlamaning o'ng va teskarisini aniqlash. Gazlamani bichishga tayyorlash. Tikuv mashinasining asosiy qismlarini aytib bering.
2. Xalat haqida ma'lumot, qo'llaniladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

15-BILET


1. To'qimachilik nima? Qaysi iplarning to'qilishidan gazlama olinadi?
2. Sarafan haqida ma'lumot, qo'llaniladigan gazlamalar va tikish ketma-ketligi.

TIKUVCHILIK YO‘NALISHI BO‘YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR (berilgan variantlardan biri tanlangan holda bajariladi)



1. Chaqaloq yaktakchasi

Yaktakcha bo‘yin o‘yindisiga, old ochiq qirqimlariga, pastki qirqimlariga va yeng uchi qirqimlariga tayyor qiyama adib bilan ishlov beriladi. Yon qirqimlari ag‘darma chokda tikiladi.



2. Qopqoqli yostiqli jildi.


(o‘lchami xohishga ko‘ra).

Ko‘ndalang qirqimlariga yopiq qirqimli buklama chokda ishlov beriladi. Jilt ag‘darma chokda tayyorlab tikiladi.



3. Qo‘l chokida qozon ushlagich tayyorlash.

To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bichilgan ikki bo‘lakdan iborat gazlamadan foydalaniladi. Tayyorlangan qozon ushlagich atroflari qo‘l chokida qavib chiqiladi.



4. Xaltacha

To‘g‘ri burchak shaklida bichilgan gazlamani ikki buklab yon qirqimlariga ag‘darma chokda ishlov beriladi. Ochiq qirqimiga yopiq qirqimli buklama chokda ishlov beriladi va tayyor tasma o‘tqaziladi.

DURADGORLIK

1-BILET

1. Daraxtning tana tuzilishini aytib bering.
2. Yer qimirlaganda qanday harakatlarni amalga oshirish lozim?

2-BILET

1. Duradgorlik o'quv ustaxonalarida texnika xavfsizlik qoidalarini gapirib bering.
2. Mebel furnituralari va ularni turlari.

3-BILET

1. Yog'ochga ishlov beruvchi o'yuvchi - yo'nuvchi dastgohning asosiy qismlari.
2. Daraxtlarni kesish jarayoni va yog'ochlardan xomashyolar tayyorlash.

4-BILET

1. Yog'ochdan yasalgan buyumlarni pardoqlashda ishlatiladigan asbob va moslamalarni tushuntiring va ko'rsating.
2. Kuydirish qurilmasining tuzilishi. Taxta yoki faner yuzidagi rasmni kuydirish jarayonini aytib bering

5-BILET

1. Yog'och o'ymakorlik turlari. Ishlatiladigan asboblardan va ish jarayonida texnika xavfsizlik qoidalarini.
2. Yog'och bo'laklarda tirnoq va quloq ochish usullari.

6-BILET

1. Yog'ochlarni saqlash va quritish tartibini tushuntirib bering.
2. Parmalash asboblari va yog'och buyum qismlarga uyalar ochish usuli.

7-BILET

1. Yog'ochlarni o'yish-teshishda foydalaniladigan asboblardan.
2. Yog'och buyumlar yuzasini yupqa zamonaviy qoplamalar bilan qoplash usuli.

8-BILET

1. Randalash jarayonida texnika xavfsizligi qoidalarini.
2. Tayyor yog'och buyumlarni bo'yash usulini aytib bering.

9-BILET

1. Yog'och bo'lakni o'yuvchi - yo'nuvchi dastgohga o'rnatish tartibini aytib bering.
2. Yog'ochlarni mix yoki burama mix yordamida biriktirishni aytib bering.

10-BILET

1. Arra turlari va duradgorlikda foydalaniladigan arralar.
2. Randa va iskana tig'larini qo'lda charxlash jarayonini aytib bering.

11-BILET

1. Yaproqli va igna bargli daraxtlarni nomlarini aytib bering.
2. Maktab mebellarini singan qismlarini ta'mirlash tartibi.

12-BILET

1. Xatkashni tuzilishi va undan foydalanishni ko'rsatib bering.
2. Faner yoki taxta yuzasiga rasm tushirish tartibini ayting.

13-BILET

1. Duradgorlikda foydalaniladigan randa turlari va uning qismlarini aytib bering.
2. Duradgorlik dastgohining (verstak) tuzilishi va uning ustidagi asboblarni to'g'ri joylashtirishini ayting.

14-BILET


1. Duradgorlik ustaxonasida yong'inga qarshi o't o'chirish vositalarini gapirib bering.
2. Yelim turlari va buyum qismlarni yelim bilan biriktirishni aytib bering.

15-BILET

1. Qilarra va uning moslamalarini gapirib bering.
2. Buyumlarni yasashda foydalaniladigan rejalash asboblarni nomlarini ayting.

DURADGORLIK FANIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR
(O'quvchilarni qobiliyatini inobatga olib, berilgan amaliy topshiriqdan biri tanlangan holda bajariladi)


1-amaliy topshiriq
Pol yuvgich yasash



2-amaliy topshiriq
Oshxona uchun yog'och kurakcha yasash



3-amaliy topshiriq
Buyumni bo'yash



CHILANGARLIK

1-BILET

1. O'lchov turlarini aytib bering.
2. Bolg'a turlarini va ularning asosiy qismlarini aytib bering.

2-BILET

1. Metallarni egovlashda ishlatiladigan egov turlari.
2. Parmalash dastgohining tuzilishini aytib bering.

3-BILET

1. Temirchilik arrasini asosiy qismlarini aytib bering.
2. Parchin mix bilan biriktirish usullarini aytib bering.

4-BILET

1. Elektr charxning tuzilishi va ishlatilishini aytib bering.
2. Yupqa metall listlariga ishlov berish usullarini ayting.

5-BILET

1. Xokandoz yasashda texnologik xaritadan foydalanish ketma – ketligini ayting.
2. O'yuvchi – yo'nuvchi dastgohning tuzilishini aytib bering.

6-BILET

1. Chilangarlik iskanjasining asosiy qismlarini aytib bering.
2. Rangli metallar. Ular qayerlarda ishlatiladi?

7-BILET

1. Elektrotexnika ishlari. Simlarni ulash usullarini ayting.
2. Santexnika ishlarida foydalaniladigan asboblarni ayting.

8-BILET

1. Metallarni korroziyadan saqlashning asosiy usullarini ayting.
2. Uyaga rezba ochish ketma – ketligini aytib bering.

9-BILET

1. Rezba turlarini aytib bering.
2. Buyumlarni kavsharlash (payvaddash). Kavsharlashda ishlatiladigan asboblarni .

10-BILET

1. Metallarga termik ishlov berish usullarini ayting.
2. Suv yig'uvchi bachoklarning tuzulishi va ularni ta'mirlash usuli.

11-BILET

1. Shtangentsirkulning tuzilishini aytib bering.
2. Jo'mrak va suv taqsimlash jihozlar tuzilishini aytib bering.

12-BILET

1. Isitish tizimi sistemasini aytib bering.
2. Favqulotda hodisalar: yong'in, zilzila, suv toshqini vaqtida o'quvchi o'zini qanday tutishi kerakligini aytib bering?

13-BILET

1. Spiralsimon parmaning tuzilishi va ishlatilishini aytib bering.
2. Elektr dazmolning tuzilishini aytib bering.

14-BILET

1. Chilangarlik ustaxonasida tartib – intizom va texnika xavfsizligi qoidalarini aytib bering.
2. Buyumlarga parдоз berishning ahamiyatini aytib bering.

15-BILET


1. Chilangarlik ustaxonasida ishlatiladigan asbob – uskunalarni aytib, ko'rsatib bering.
2. Birikma turlari va ularni ishlatilishini aytib bering.

CHILANGARLIK YO'NALISHI BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR

(berilgan variantlardan biri tanlangan holda bajariladi)


1-amaliy topshiriq

Burchaklik



2-amaliy topshiriq

Qulfilgich



KOSIBCHILIK

1-BILET

1. Poyabzalni mayda ta'mirlash ishlariga nimalar kiradi: kerakli asboblarni ayting.
2. Andozani nima uchun kerakligini ayting.

2-BILET

1. Poyabzallarning faslga moslab kiyilishi va vazifasi haqida gapirib bering.
2. Yelimlarni qanday turlarini bilasiz?

3-BILET

1. Tabiiy charmni sun'iy charmdan farqini ayting. Ularni ko'rsatib bering.
2. Poyabzallarning ichki patagi (stelka) qanday tayyorlanadi?

4-BILET

1. Poyabzalni tag qismidagi detallarini nomini ayting.
2. Poyabzalni charmli qismlarini tikuv mashinasida tikib ko'rsating.

5-BILET

1. Poyabzallarning ichki patagi (stelka) qanday tayyorlanadi?
2. Poyabzalni tagligini (padoshva) yelimlab yopishtirish ketma - ketligini ayting.

6-BILET

1. Poyabzalni tagligi (padoshva) uchun qanday xomashyolar qo'llaniladi?
2. Kosibchilikda ishlatiladigan mixlarni turi, ularni boshqa mixlardan farqini ayting.

7-BILET

1. Ip turlarini ayting, poyabzal ta'mirlashda ishlatiladigan ipni ko'rsatib bering.
2. Poyabzal detallarini bichish va qirqish uchun qanday asboblari kerak bo'ladi?

8-BILET

1. Poyabzalni rezinali poshnasini almashtirish ketma-ketligini va kerakli asboblarni ayting.
2. Poyabzal ta'mirlash ustaxonasida ishlash qoidasi va texnika xavfsizligini aytib bering.

9-BILET

1. Poyabzalni ustki qismiga taglikni (padosh) yelimlash va quritish ketma-ketligini ayting. Poyabzalni tag qismi ochilganda uni ta'mirlash usulini ayting
2. Etikdo'z bolg'asi, uning vazifasi, boshqa bolg'alardan farqi.

10-BILET

1. Pataklarning (stelka) turlari, ularni tayyorlash uchun zarur bo'ladigan materiallar.
2. Poyabzalni poshnasidagi tag rezinani almashtirish ketma-ketligini ayting. Poyabzallarni moylash uchun kerakli asboblarni ayting va moylash hamda pardozlashni amalda bajaring.

11-BILET

1. Kosibchilikda ishlatiladigan bigizlarni turi va vazifasi, texnika xavfsizligini ayting.
2. Poyabzalni poshna qismi. Ularni turi va balandligi.

12-BILET

1. Poyabzalni ustki qismini taglikka (padoshva) yelimlab qotirish va tikish usullarini aytib bering.
2. Poyabzalni tagligini qanday asbob bilan tikiladi?

13-BILET

1. Bigiz va qo'l yordamida tikiladigan choklarni turlari vazifasi, chokni namunasini chizib ko'rsating.
2. Poyabzalni tag qismini qotirish usullarini ayting.

14-BILET

1. Poyabzalni tagiga panja qismini (podmyotka) yelimlab qotirishning ketma-ketligini ayting, poyabzallarni moylash uchun kerakli asboblarni.
2. Poyabzalni yaxshi saqlash uchun nimalarga amal qilish kerak.

15-BILET

1. Poyabzalni poshna tag rezinasini (naboyksini) yelimlash, mixlash usulida ta'mirlashda kerakli materiallarni ayting. Xona shippagini tayyorlash ketma-ketligini ayting.
2. Poyabzal ta'mirlash uchun foydalaniladigan tikuv mashinasida ishlash qoidasini ayting.

KOSIBCHILIK YO'NALISHI BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR

(berilgan variantlardan biri tanlangan holda bajariladi)

1-amaliy topshiriq

- I. Poyabzal podoshvasini qo'l chokida tikib ta'mirlash. Poyabzalni tag qismi ochilib qolganda uni yelimlab qotirish va qo'l chokida tikib ta'mirlash. Ish tartibi quyidagicha:

*Tikish uslubi.
1-variant*

Tayyor chok ko'rinishi.

2-variant



Yuqoridagi qo'l choklari kartonda, charmda yoki poyabzalda tikib ko'rsatiladi.

2-amaliy topshiriq

- II. Poyabzal poshnasining tag rezinasini almashtirish.

- a) *Amaliy ishni bajarish tartibi:*
-rezinani yelimlab yopishtirish;
-mix bilan qoqish.

- b) *Kerakli materiallar –*
Poliuretan, mikropol rezina.



- s) *Ulardan tag rezinasini bichish.*



3-amaliy topshiriq

III . Individual vazifa:

Poyabzalni patak andazasini tekstil matoning ustiga qo‘yib qalam yoki bo‘r bilan chizib olish va kesish.



v) patakning tayyor holati



g) Ichki patak almashtirish jarayoni

PAZANDACHILIK

1-BILET

1. Pazandachilik fani to'g'risida ma'lumot. To'g'ri ovqatlanish asoslari.
2. Buterbrod turlari. Sendvich tayyorlash texnologiyasi.

2-BILET

1. Milliy taomlar turlari.
2. Qaynatilgan kartoshkani tayyorlash texnologiyasi.

3-BILET

1. Sut va sut mahsulotlari to'g'risida ma'lumot bering.
2. Tuxumdan tayyorlanadigan taomlar. Sabzavotlar qo'shilgan omletni pishirish texnologiyasi.

4-BILET

1. O'tkir buyumlar bilan ishlashda xavfsizlik choralari.
2. Issiqlik bilan ishlov berish usuli: qovurish. Qovurilgan kartoshkani tayyorlash texnologiyasi.

5-BILET

1. Oshxona elektr jihozlari ishlatishda xavfsizlik qoidalari, issiq suyuqliklar va idishlar bilan ishlashda ehtiyot choralari.
2. Issiq ichimliklar. Kofe tayyorlash texnologiyasi.

6-BILET

1. Shirin taomlar. Shirin taomlar turlari.
2. Un turlari, unga birlamchi ishlov berish. Saqlash shartlari.

7-BILET

1. Oshxona va uning jihozlari.
2. Xamir turlari. Oshirma xamirdan pishiriqlar tayyorlash texnologiyasi.

8-BILET

1. Oshxona idishlari.
2. Mevalarni oddiy shaklda kesish, to'g'rash qoidasi.

9-BILET

1. Pazandachilik kasblari. Har bir mutaxassis vazifasi.
2. Biskvit tayyorlash texnologiyasi. "Sharlotka" torti.

10-BILET

1. Navro'zda pishiriladigan taomlar.
2. Nonushta uchun dasturxonni bezatish tartibi.

11-BILET

1. Servirovka haqida tushuncha bering.
2. Sabzavot turlari: tasnifi, ozuqaviy qiymati, sabzavotlarni dastlabki qayta ishlash.

12-BILET

1. Sharqona taomlari. Sharqona shirinliklar turlari.
2. "Olivye" salatini tayyorlash texnologiyasi.

13-BILET

1. Nonushta uchun tayyorlanadigan taomlar.
2. Bo'tqa turlari. Irmikli (mannaya) bo'tqa tayyorlash texnologiyasi.

14-BILET

1. Makarondan tayyorlanadigan taomlar. Makaron qaynatish texnologiyasi.
2. "Sezar" salatini tayyorlash texnologiyasi.

15-BILET

1. Yevropa taomlari. Yevropa shirinliklari.
2. Tuxumdan tayyorlanadigan taomlar. Qaynatilgan tuxum tayyorlash texnologiyasi.

PAZANDACHILIK YO'NALISHI BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR (xohishga ko'ra quyidagi vazifalardan bittasi tanlanadi)

I. Sabzavotlar va ko'katlardan hamda qatiqdan bahorgi salatni tayyorlash va chiroyli qilib bezatish.



II. Mevalarni kubik qilib to'g'rash. Mevali va muzqaymoqli salat tayyorlash. Dasturxonaga tortish uchun chiroyli bezash.



III. Tayyor kekslarni krem bilan bezash va dasturxonga tortish uchun tayyorlash.



Murakkab nuqsonli o'quvchilar uchun vazifalar:
(Xohishga ko'ra vazifalardan biri tanlanadi)

I. Kofe damlash. Dasturxonga tortishga tayyorlash.



I. Tayyor kesilgan masalliqlardan hot-dog tayyorlash.



II. Tuxumni qovurish va likopchada chiroyli qilib bezatish.



SARTAROSHLIK

1-BILET

1. Qanday soch turmaklarini bilasiz?
2. Soch bo'yoqlarini qanday turlari bor?

2-BILET

1. Soch turmaklashda nimalardan foydalaniladi?
2. Sochni parvarish qilishda qanday vositalardan foydalanish mumkin?

3-BILET

1. Soch quritishda qanday elektrvositalaridan foydalaniladi?
2. Soch turmaklash jarayonida elektrvositalar bilan foydalanishda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalarini aytib bering.

4-BILET

1. Sochga jingalak shaklini berish uchun nimalardan foydalanish mumkin?
2. Bigudidan foydalanib sochga shakl berish qoidasini aytib bering.

5-BILET

1. Kimyoviy bo'yoqlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Qo'l tirnoqlarini manikur qilish tartibini aytib bering.

6-BILET

1. O'quvchilarga qanday soch turmaklari mos keladi?
3. Qaychidan foydalanishda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalarini aytib bering.

7-BILET

1. Soch yuvish tartibini aytib bering.
2. Soch qirqishda bo'laklarga bo'lish qoidasi.

8-BILET

1. Go'zallik salonida mijozlar bilan ishlash jarayonidagi muomala madaniyati.
2. Shampundan nima uchun va qanday foydalaniladi?

9-BILET

1. “Fen” elektr vositasidan foydalanishda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari.
2. Qanday taroq turlarini bilasiz?

10-BILET

1. Go`zallik salonida ish jarayonida rioya qilinadigan gigiyenik talablar.
2. “Ployka” elektr vositasidan foydalanishda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari.

11-BILET

1. Yuz terisini parvarish qilishda qanday vositalardan foydalaniladi?
2. Sochga shakl berishda yuz tuzilishini inobatga olish.

12-BILET

1. Sochni zamonaviy uslubda jingalak qilish tartib qoidasi.
2. Asosiy sartarosh asboblari.

13-BILET

3. O`g`il bolalar sochini qirqish uslublari.
4. Sartarosh asboblari bilan ishlaganda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari.

14-BILET

1. Soch to`kilishida qanday muolajalar qilish zarur bo`ladi?
2. Tirnoqlarni manikur qilishda qo`llaniladigan gigiyenik talablar.

15-BILET


1. Soch turmaklashda foydalaniladigan qisqich va zakolkalar turlari.
2. Oyoq tirnoqlarini parvarish qilishda rioya qilinadigan gigiyenik talablar.


SARTAROSHLIK BO‘YICHA

Amaliy topshiriqlar

(berilgan variantlardan birini tanlagan holda bajariladi)

	<p>1. Turli xil bigudilar ichidan termo begudini ajratib bering.</p>
---	---

	<p>2. Fen yordamida sochga shakl berib quritish.</p>
--	---



3. Sochni turmaklash

(turmak shakli xohishga ko'ra tanlanadi).



QISHLOQ XO‘JALIGI

1-BILET

1. Tuproq unumdorligini mahalliy va mineral o‘g‘itlar orqali oshirish usullarini aytib bering.
2. Belkurakdan foydalanish xavfsizlik qoidalarini ayting.

2-BILET

1. Chorvachilik yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Ko‘p yillik gullarni qishga tayyorlash.

3-BILET

1. Poliz ekinlari turlari va ularni yetishtirish usullari.
2. Daraxt ko‘chatlarini ekish ketma-ketligini tushuntirib bering.

4-BILET

1. Madaniy va manzarali o‘simliklarni turlarini ayting.
2. Dehqonchilikda yerlarga qanday ishlov beriladi?

5-BILET

1. Bir yillik gullar qanday ko‘paytiriladi?
2. O‘roqdan foydalanish xavfsizlik qoidalarini ayting. Sabzavot urug‘larini sepish va ko‘kartirish.

6-BILET

1. Dukkakli o‘simliklar to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Bir yillik gullar qanday parvarish qilinadi? Mehnat qurollaridan foydalanish xavfsizlik qoidalarini ayting.

7-BILET

1. Tuproq turlari. Tuproq unumdorligini oshirish usullarini ayting.
2. Yerlarni sug‘orish turlari va tartibi qanday amalga oshiriladi?

8-BILET

1. Sabzi va lavlagi sabzavotlari turlari va farqlari.
2. Sabzavotlarni qishga saqlash tartibini aytib bering.

9-BILET

1. Qishloq xo'jaligi mehnati yo'nalishlarini ayting.
2. Parrandachilik turlari. Parranda tuzilishini ayting.

10-BILET

1. Kuzgi dala ishlari haqida ma'lumot bering.
2. Mahalliy o'g'it turlari va ularni tayyorlash.

11-BILET

1. Mahalliy o'g'it turlari va ulardan foydalanish tartibi.
2. Boshqli don turlari va ularni yetishtirish usullarini ayting.

12-BILET

1. Piyozni urug'i va no'shpiyoz tiqish orqali yetishtirish qanday amalga oshiriladi?
2. Bir yillik o'simlik urug'larini yig'ish va saqlash turlari.

13-BILET

1. Kompos tayyorlash texnologiyasini tushuntirib bering.
2. Kuzda yerlarni tayyorlash ketma-ketligi, xavfsizlik qoidalarini sanab bering.

14-BILET

1. Mevali daraxt turlari va tuzilishini ayting.
2. Bir yillik gullar qanday parvarish qilinadi?

15-BILET

1. Tuproqqa ishlov berishning ahamiyati.
2. Mehnat qurollaridan foydalanish xavfsizlik qoidalarini ayting

Obodonlashtirish fanidan amaliy mashg'ulot

1. Amaliy mashg'ulot:

Gul ko'chatini tuvakka o'tqazish ketma-ketligi.



2. Amaliy mashg'ulot:

Bahorgi ishlar: yerni urug' ekish uchun tayyorlash.



3. Amaliy mashg'ulot:

Tuproq unumdorligini oshirish uchun bajariladigan ishlar.

